

TILSHUNOSLIK FANINING METODOLOGIK MASALALARI

Munisa Xalillayeva Baxram qizi

Chirchiq davlat Pedagogika universiteti talabasi

munisaxalilayeva5@gmail.com

Anontatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslik faning metodologik masalalari yuzasidan olib borilgan taqdijotlar va ularning natijalari, shuningdek, tilshunoslik bo'yicha ilmiy asoslangan fikr mulohazalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Metodologik masalalar, til, nutq, sinxronik, diaxronik, chog'ishtirma tilshunoslik, struktura.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, har bir sohani chuqurroq o'rganishga, fan sohalarining ochilmagan qirralari-yu bilimlarni kashf etishga bo'lgan qizish, fan arboblari, ilmiy tadqiqotchilar tomonidan qiziqish bildirilib, izlanishlar natijasida, babs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Jumladan, tilshunoslikning metodologik masalalari yuzasidan olib borilayotgan izlanishlar, sohani chuqurroq o'rganishga va uning asl mazmuni- mohiyatini oshib berishga qaratilgan. Til - ijtimoiy va insonlar orasidagi muhim aloqa vositasi hisoblandi.

Tilshunoslik - tillarni o'rganuvchi fan bo'lib, lingvistika deb ham yuritiladi va lingvistika asosa ikki turida o'rganiladigan soha bo'lib:

1. Nazariy tilshunoslik tilning strukturasi ya'ni grammatisini va uning ma'nosi (semantikasini) o'rganadi. Grammatika o'z navbatida morfologiya deb ham yuritilib, so'zlarning tuzilishi va o'zgarishini o'rganadi. Sintaksis -so'zlarning iboralarga va gaplarga biriktrilish qoidalari va fonologiya esa tilni abstrakt tovushlar yordamida o'rganish kabi bo'limlarini o'z ichiga qamrab oladi.
2. Amaliy tilshunoslik, asosan, tilshunoslikda o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash bilan shug'ullanadi. Amaliy tilshunoslik tarkibiga xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish kiradi. Nazariy bilimlarni amalda qo'llash ya'ni til ta'limi o'rganilgandan, keyin ilmiy va badiiy adabiyotlardan foydalanish jarayonida nazariy olingan bilimlarni amaliyotda taniy olish va qo'llay bilish demakdir.

"Tilshunoslikbo'yicha ilmiy tadqiqotlarda bu bosqich o'rganilayotgan til hodisasing qo'llanilish holatlarini (shevashunos bo'lsa, sheva xususiyatlarini, grammatis'bo'lsa, grammatik shakkarning, leksikolog bo'lsa, o'z tadqiq manbaiga oid so'zlarning, uslubshunos bolsa, u yoki bu til birliklarining ma'lum bir maqsadlarni ko'zlab qo'llanishlarini, biror yozma yodgorlikning lisoniy xususiyatlari tadqiqotchisi bo'lsa, shu yodgorlik yoki asarning til xususiyatlarini va h.) qayd etib, kartochkalarga o'chirish, har bir kartochkada hodisa to'g'risida o'z qaydlarini, hodisa olingan manbani aniq (kerak bo'lganda osongina topa oladigan shaklda)ko'rsatib berishdan iborat" [6:23]. Bunday izlanishlar, tilshunoslik bo'limining bir nechta bosqichlarda tahlil qilinib, so'z va gap ustida ishlash jarayonida so'z va gaplarni morfemik, leksik, grammatik hamda lisoniy turlarini tahlil qilishga va aynan har bir so'zning tub ma'nosi tarixi va yasalishini o'rganish kabi masalalarini puxta ilmiylik prinsepiga asoslangan holda tahlil qilish bosqichini o'z ichiga oladi va shu sohani o'rganadi.

Tilshunoslik fanining tarixida tilning tabiatini hamda ijtimoiy ahamiyati kabi eng muhim masalalarni o'rganishda turli nazariyalar va oqimlar mavjud bo'lgan. Jumladan, mashhur nemis olimi "Avgust Shleyxer nomi bilan bog'liq bo'lgan "Naturalistik oqim" tilni tirik organizm deb tushungan. U o'zining "Darvin nazariyasi va tilshunoslik" nomli asarida Darvinninjonivor va o'simliklaring turlari haqidagi ta'limotini tilga ham tadbiq qilinishi kerak deb da'vo qilgan. Uning fikricha, tilning paydo bo'lishi, rivojlanishi va evolyusiyasi tabiat qonunlariga bo'ysungan holda ro'y beradi: til tirik organizm kabi paydo bo'ladi, rivojlanadi va o'ladi. Ammo keyinchalik fan taraqqiyoti tilning tabiatini va mohiyati haqidagi Avgust Shleyxer nazariyasining noto'g'ri ekanligini isbotladi". [4:80] Demak, til tabiiy va biologik hodisa emas, til ta'limini paydo bo'lishi tabiat bilan bog'liq holda rivojlanmagan. Til kishilar o'rtasida mehnat jarayonida fikr almashish va aloqa vositasi jarayonida yuzaga kelgan. Til inson tafakkurini ifodalaydi, ya'nin inson o'z fikrini tili orqali bayon qiladi. Tilsiz, tafakkurni ifodalab bo'lmaydi. Tilning mavjudligi inson va insonlar bir birlarini tushinishni, anglata olmaslik va angłamaslik muammolarini qisman hal qiladigan vosita hisoblanadi.

"Mashhur tilshunos A.Martine 1953-yil yozgan maqolasida shu davr tilshunoslari va tilshunosligi haqida fikr yuritar ekan, «ko'pchilik buyuk tilshunoslarning e'tiqodli va faol strukturalistlar» ekanligini bayon qiladi. M. Koen esa tilshunoslikda strukturalizm erasi boshlanganligini ta'kidlaydi. [3:574]. 1953- yilda dunyo tilshunosligida tobora obro'-e'tibor qozonayotgan struktur tilshunoslikning sho'rolar tilshunoslige ta'sir etishining oldini olish maqsadida bu yo'nalishga tanqidiy baho beruvchi qator maqolalar e'lon qilindi". [1:3] Tilshunoslik sohasi nafaqat O'zbekistonda o'rganilayotgan sohalardan biri hisoblanib, balki jahon davlatlarida ham keng turda o'rganilayotgan aniq fan hisoblanadi. Jumladan, Martin va Koen bu bo'yicha strukturalizm erasi boshlanganligini ta'kidlaydi. Bu bo'yicha bir nechta tanqidiy maqolalar chop etiladi. Olimlarning yondashuviga qo'shimcha qilib, biz, mazkur sohaning ahamiyati ilm-fan uchun muhim o'r'in tutishni va so'z va gaplarning qurilishini va mazmun mohiyatini va strukturasini o'rganish, sohaning mohiyatini ohib berishini aytishimiz mumkin.

"XIX asrning o'rtalarida tabiiy fanlarda qo'lga kiritilgan yutuqlar barcha fanlarning tadqiqot metodologiyasiga katta ta'sir qildi. Turli fan tarmoqlarida matematik amallardan keng foydalanishga o'tildi. Bevosita kuzatishda berilgan hodisalarini faqat ro'yxatga olish bilangina cheklanmasdan, ularni umumlashtirishga ularning zamirida yotgan mohiyatlarni aniqlashga o'tish harakati tufayli deduktiv tamoyil o'r'in ola boshladi." [5:19] Bundan salkam ikki asr ilgari tabiiy fanlar bo'yicha ilmiy taqdijot mahsuli, anchagina, oshganining hisobiga fanlarning tadqiqot metodologiyasiga ta'siri katta bo'lib, deduktiv tamoyil yuzaga keladi va ilgari fandagi yondashuvlaring tizimiga katta ta'sir ko'rsatadi.

"Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri tilning, ushbu fanning, predmeti sifatidagi ta'rifidir. Tabiiy inson tili faqat tilshunoslikda emas, balki, bir qator fanlar tomonidan o'rganiladigan murakkab hodisa bo'lib, har bir fanning tilga bergan ta'rif turlichadir. Tilning ta'rif masalasi tilshunoslik fani tarixidagi eng muhim masalalardan biri bo'lib, fan tarixida turlicha talqin qilingan va hozirgi kunda ham turli ilmiy maktablar hamda oqimlar orasida keskin bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Buyuk tilshunos Ferdinand de Sossyurning nazariy qarashlari bu masalaga oydinlik kiritdi va tilshunoslik tarixida yangi bir davrni boshlab berdi" [8:6]. Bu yerda tilshunoslik fan har bir fanning o'rganilishi zarur bo'lgan qismi bo'lib, bunda har bir fanning o'z tili o'rganish uslubi bo'lishi alohida ta'kidlanadi va ushbu soha turli olimlar tomonidan turlicha ta'riflar keltirilganligi sabab ko'plab bahslarga sabab bo'lib kelmoqda, va tilshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan shvetsariyalik olim Ferdinand de Sossyur (1857 - 1913) ko'plab davlatlarda mazkur soha bo'yicha ma'ruzalarni tinglaydi, "Yosh grammatikachilar" yig'ilishlarida

qatnashib fikrlarni tinglaydi va boshqa mavjud qarashlar bilan solishtiradi. Umumiy xulosaga keladi. «Hind-Evropa tillan unlilarining Olim til (latigue), nutq (parole) va nutq faoliyatini (langage) farqlaydi. Uning fikncha, til - bu grammatick tizim va Iug'at tarkibidir. Nutq faoliyati esa muayyan xalqning ifoda imkoniyatlari tizimidir. Uning vafotidan keyin ham shogirdlar ilmiy taqdijot ishlarini davom qildirishadi. Til bilan nutq sotsial hamda individual xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Bundan tashqari, Ferdinand de Sossyur ichki va tashqi lingvistikani farqlab, til tarixi, jamiyat tarixi, kishilik madaniyati tarixi bilan bog'laydi. Uning e'tiroficha, millatning urf-odatlari tilda o'z aksini topadi. Shuningdek, olim tilga sinxronik, diaxronik tomondan yondashuv masalalarini yoritadi.

Sinxroniya - tilning bir davrda mavjud bo'lgan shakli:

Diaxroniya- til dalillarining izchil zamonda ko'rinishi, tarixiy yoki dinamik aspekti hisoblandi.

"Tillarni sistematik ravishda qiyosiy o'rganish qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda, tipologiyada (klassik - morfologik va struktural tipologiyalarda), qiyosiy tipologiyada, chog'ishtirma tilshunoslikda qo'llaniladi. Qarindoshlik darajasi turlicha bo'lgan va joylashgan o'ridan qat'i nazar ikki tilni sinxronik qiyosiy o'rganish chog'ishtirma tilshunoslik deb ataladi. Tillarni chog'ishtirma o'rganish tarjima, mashina tarjimasi, lingvofalsafiy, lingvodidaktik va nazariy masalalani o'rganishni maqsad qilib oladi". [2:183] Tarjima maqsadidagi chog'ishtirish asosida bir umumiyl ma'noning ikki tildagi ifodalananish vositalarini aniqlash yotadi. Tilshunoslikda chog'ishtirma o'rganish orqali boshqa tillar sturkturasi o'rganiladi va ikkinchi tilni o'rganish masalalari ko'rib chiqilib, alohida yechimlar keltirilib o'tiladi.

Tilshunoslik fanining "chegarasini, predmetini aniqroq ta'riflash maqsadida nazariyotchi olim Fermenant de Sossyur til bilan nutqni ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, til nutq faoliyatining faqat bir tomonini tashkil etadi. Til bilan nutqning asosiy farqi – til ijtimoiy, nutq esa individual hodisadir." [7:14] Tilshunoslikning aynan o'rganilish metodologiyasi mana shunday masalalarga yechim topishga qaratilgan. Fermenant de Sossyur til va nutqni ajratib fanga o'z qarashlarini keltiradi. Shu o'rinda, tilni umumiyl holda emas, xususiy holda ta'riflasak, ya'ni bitta insoning nutqini bayon qilishda foydalanadigan vosita sifatida, bunda til va nutq alohida qaraladigan birlik sifatida qarashimizni inkor qiladi ya'ni tafakkur+til+nutq strukturasini hosil bo'lishi o'rinni deb bilamiz.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, tilshunoslikning metodologik masalalari o'rganilishi, davomida, taqqiqtchilar tomonidan olib borilayotgan izlanishlarnining ba'zilari amaliyotda o'z aksini topgan bo'lsada, yana bir qancha, ilmiy izlanuvchilar tomonidan bahs-munozaralarga sabab bolib kelayotganligini alohida ta'kidlab, mazkur sohani o'rganishda mavjud bilimlarni egallagan holda tilshunoslikka kirish, sohaning dolzarb masalalarini ochishga ko'makchi bo'la oladi, deb taklif bera olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 4. Ахманова О. Глосематика Луи Ельмслева как провляование упадка современного буржуазного языкоznания. - ВЯ. 1953 .
2. 7. Irisqulov M. T. Tilshunoslikka kirishish. T.: "Yoshlar bosmaxonasi" 2009 y. 264 b.
3. 3. Коен М. Современная лингвистика и идеализм. - ВЯ. 1958. 580.
4. 2. Masharipova O'. Yo'ldoshev I. Tilshunoslik assoslari. T.: 2006 y. 90 b.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-IYUN,2024

5. 5. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: Ildizlari va yo'nalishlar. "Ta'lim" nashiryoti. 2009 y. 162 b.
6. 1. Nematov H. Mengliyev B. Hamroyeva Sh. Tilshunoslikning metodologik masalalari. Monografiya. 2020 y. 107 b.
7. 8. Sanaqulov U. Turobov A. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. SAMDU nashiryoti. 2019 yil . 164 b.
8. 6. Uloqov N. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. "Barkamol fayz media" 2016 y. 192 b.